

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**



**“SIFATLI TA’LIM VA INNOVATSION MUAMMOLAR,
YECHIMLAR VA YONDASHUVLAR” MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**

MATERIALLAR TO‘PLAMI

7-8 -Aprel 2026 yil



Guliston-2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

“SIFATLI TA’LIM VA INNOVATSION
MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA
YONDASHUVLAR” MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI

MATERIALLAR TO‘PLAMI

7–8 - Aprel 2026-yil

“Ziyo nashr-matbaa” XK
Guliston – 2026

UO‘K: 37.014:001.895(06)

KBK: 74.00

S 61

Sifatli ta’lim va innovatsion muammolar, yechimlar va yondashuvlar [Matn] : to‘plam / muharrir J. Husenov. - Guliston : Ziyo nashr-matbaa, 2026. - 904b.

Ushbu to‘plam “Sifatli ta’lim va innovatsion muammolar, yechimlar va yondashuvlar” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, sifatli ta’limni ta’minlash, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish masalalari keng yoritilgan.

To‘plamda ta’lim sifatini boshqarish va monitoring qilish, raqamli pedagogika va axborot texnologiyalarini qo‘llash, sun’iy intellekt asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish, xorijiy tajribalar va xalqaro standartlarni joriy etish, amaliy ta’lim va laboratoriya metodikasini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy maqolalar jamlangan. Shuningdek, O‘zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlarning ijtimoiy-tarixiy asoslari, zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimi va kompetensiyaviy yondashuvlar masalalari ham alohida e’tibor markazida bo‘lgan.

Mazkur to‘plam oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, tadqiqotchilar, amaliyotchi mutaxassislar hamda magistr va talabalar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalarini o‘z ichiga oladi. To‘plam materiallarining mazmuni, undagi ilmiy xulosalar va takliflar mualliflarning shaxsiy qarashlariga asoslangan bo‘lib, ular uchun mualliflar javobgardir.

Anjuman materiallari Guliston davlat universitetida o‘tkazilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiya doirasida shakllantirilib, ilmiy jamoatchilikka taqdim etish uchun nashrga tavsiya etilgan.

TAHRIR HAY’ATI

№	F.I.Sh.	Lavozimi
1	Xodjiyev Muksin Tadjievich	GulDU rektori, tahrir hay’ati raisi
2	Eshmurodov Dilmurod Dusmurod o‘g‘li	GulDU, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, tahrir hay’ati raisi muovini
3	Turdikulov Olim Taikulovich	GulDU, ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, mas’ul kotib
4	Sharipov Fazliddin Galiyevich	GulDU, o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, tahrir hay’ati a’zosi
5	Pazilov Abdushoxit Abduvoitovich	GulDU, xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, tahrir hay’ati a’zosi

Kompyuterda sahifalovchilar: J. Husenov, J.Begimqulov

Ushbu to‘plam mualliflarning qo‘lyozmalari asosida o‘zgartirishlarsiz to‘laligicha tayyorlandi va chop etildi.

ISBN 978-9910-606-69-4

© Guliston davlat universiteti
© “Ziyo nashr-matbaa” XK, 2026

	KOMPETENSIYAVIY TA’LIM MODEL ASOSIDA KADRLAR TAYYORLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	
Sherbekova Madinabonu Shavkat qizi	INGLIZ TILINI O’QITISHDA PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR ASOSIDA LINGVOMADANIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	296
Xudoyqulova Dinobod Baxtiyor qizi	ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA LINGVISTIK QOBILIYAT VA KOGNITIV JARAYONLAR ALOQADORLIGINI O’RGANILISHI	300
Eshmurodova Dilobar Nizom qizi	BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARIDA KITOBXONLIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH KOMPITENSIYASI	302
Jo’raqulov Sardor Mashrab o’g’li	QIT’A JANRI GENEZISI VA SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI	307
Yusupov Ravshan	KOMPETENSIYAVIY TA’LIM MODELIDA TA’LIM SIFATINI BOSHQARISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MONITORING MEZONLARI	312
Bekmurodov Doston Jo’rayevich	O’ZBEK XALQ QO’SHIQLARINING JANRIY TIZIMI VA POETIK XUSUSIYATLARI	314
Bozorova O’g’iloy Hikmat qizi	BO’LAJAK O’QITUVCHILARINING KOGNITIV FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH TAMOYILLARI	317
Sherbekova Kamola Norbek qizi	OLIY TA’LIMDA ZAMONAVIY METODIKALARNI O’RGANISH VA AMALIYOTGA TATBIQ QILISH	319
Xaydaraliyev Abdullo Usmonali o’g’li	PSIXOLOGIYADA XAVFSIZLIK TAMOYILLARINING TA’LIM MODEL	322
Jankorazov Abror Mamrajab o’g’li	BUGUNGI KUNDA ZAMONAVIY TA’LIM SOHASINING ROLI, MUAMMO VA YECHIMLARI TENDENSIYASI	325
Mirzaliyeva Dilobar Sherali qizi	BOSHLANG’ICH TA’LIM O’QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA INNOVATSION VA AKMEOLOGIK METODLARNING INTEGRATSIYASI	328
Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi	KADRLAR TANLASHDA XAVFSIZLIK PSIXOLOGIYASIGA OID BILIMNLARNING O’RNI	331
Joniqulov Behzodbek Ravshan o’g’li, Xudayberdiyeva Xalixan Raxmanovna	GEOGRAFIYA DARSLARIDA TEXNIK VOSITALAR VA KO’RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISH	334
Raxmonova Munirabonu G’ulomjon qizi, Xudayberdiyeva Xalixan Raxmanovna	TA’LIMDA 4K MODELIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	337
Rayimjonov Ismoiljon Hoshimjon o’g’li, Tursunnazarov Ismoiljon Murod o’g’li	HINDISTON SIVILIZATSIYASI MAVZUSIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	340
Bo’ltakova Mohinur Shuxratboy qizi	TEXNIKA YO’NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARNING INGLIZ TILIDAN MULTIMODAL SAVODXONLIGIGA QO’YILADIGAN TALABLAR	343
Jabbarova Shahodat Ibromim qizi	KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O’QUVCHILARNING TABIATGA QIZIQISH KO’NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA TADQIQOTCHILIKKA YO’NALTIRISH METODIKASI (1-2- SINIF O’QUVCHILARI MISOLIDA)	346
Xushiyeva Gavxar Mamatkarimovna	MAKTABGACHA TA’LIMDA TARIXIY FIKRLASH KO’NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	350
Tuxtamishova Gulnoza	ZAMONAVIY KASBIY TA’LIMDA METODOLOGIK	353

3. Ikromova M.V. “Boshlang‘ich sinflarda kompetensiya tushunchasining mohiyati” maqolasidan. – T., 2023.
4. Muslimov N. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T., 2016.
5. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent.: Iqtisod-moliya, 2011. B. 418.

QIT’A JANRI GENEZISI VA SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

Jo‘raqulov Sardor Mashrab o‘g‘li

Guliston davlat universiteti,

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

E-pochta: sardorjoraqulov257@gmail.com ; Tel: +998911009914

ORCID:0009-0001-7542-0582

Annotatsiya

Mazkur maqola kadrlar tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari hamda kompetensiyaviy ta’lim modeli nuqtayi nazaridan qayta talqin qilindi. Unda o‘zbek adabiyotidagi mumtoz shakllardan biri bo‘lgan qit’a janrining shakllanishi, nazariy asoslari va genezisini o‘rganish orqali talabalarda adabiy-tahliliy, tanqidiy fikrlash va ilmiy izlanish kompetensiyalarini shakllantirish masalasi yoritiladi.

Tadqiqot jarayonida asosiy nazariy manbalar sifatida Shayx Ahmad Xudoydod Taroziyning “Funun ul-balog‘a”, Atoulloh Husayniyning “Badoe’ us-sanoe’” hamda Abdurauf Fitratning “Adabiyot qoidalari” asarlaridan foydalanish orqali talabalar bilimlarini manbaviy tahlil asosida chuqurlashtirish, ularni mustaqil ilmiy xulosa chiqarishga yo‘naltirish ko‘zda tutiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida qit’a janrining o‘ziga xos xususiyatlari, uning erkinlik tabiati, bevosita ifoda ustunligi, kinoya va murakkab badiiy vositalarning o‘rniga ochiq-ravshan bayonning ustuvorligi tahlil qilinib, bu jarayon orqali talabalarda badiiy matnni anglash, estetik baholash va interpretatsiya qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Shuningdek, qit’alarda voqea-hodisalarni aniq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalash, ijtimoiy illat va nuqsonlarni ochiq baholash kabi jihatlar asosida talabalarning ijtimoiy-madaniy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: qit’a janri, kompetensiyaviy ta’lim, tanqidiy fikrlash, badiiy tahlil estetik baholash, kommunikativ kompetensiya, ilmiy izlanish, nazariy manbalar, kinoyalar, nozik va murakkab mubolag‘a, imo-ishoralar, obyekt, badiiy-estetik xususiyat, tahlil va h.k.

Abstract

This article is reinterpreted from the perspective of modern approaches to personnel training and a competency-based education model. It examines the formation, theoretical foundations, and genesis of the continental genre, one of the

classical forms in Uzbek literature, to address the issue of developing students’ literary-analytical, critical thinking, and scientific research competencies.

The research process aims to deepen students’ knowledge based on source analysis and guide them to draw independent scientific conclusions by using the works of Sheikh Ahmad Khudoydad Taraziy’s “Funun ul-baloga”, Atullah Husayniy’s “Badoe’ us-sanoe”, and Abdurauf Fitrat’s “Rules of Literature” as the main theoretical sources.

Within the framework of the competency approach, the specific features of the continental genre, its nature of freedom, the predominance of direct expression, the priority of frank statement over irony and complex artistic means are analyzed, and through this process, students develop the skills of understanding, aesthetic evaluation and interpretation of the artistic text.

Also, opportunities are revealed for the formation of students’ socio-cultural and communicative competencies based on aspects such as clear and direct expression of events in continentals, and open assessment of social vices and defects.

Keywords: continental genre, competency-based education, critical thinking, artistic analysis, aesthetic evaluation, communicative competence, scientific research, theoretical sources, irony, subtle and complex hyperbole, gestures, object, artistic and aesthetic properties, analysis, etc.

Mumtoz adabiyotshunoslikdan ma’lumki, qit’a boshqa janrlarga nisbatan erkin, ya’ni g’azal, ruboiy yoki tuyuq kabi qat’iy qonuniyatlarga ega bo’lmagan, mavzu doirasi ham ularga nisbatan anchagina keng bo’lgan janr sanaladi. Janrdagi mazmun va shakl erkinligi uning imkoniyatlarining yanada kengayishiga xizmat qiladi.

“Qit’a (arab. – parcha, bo’lak, qism, bir kesim) – Sharq mumtoz she’riyatida keng tarqalgan, ikki baytdan bir necha o’n baytgacha (ayrim manbalarda 19 baytgacha deb belgilangan) hajmdagi, juft misralari o’zaro qofiyalanib, toq misralari ochiq qoluvchi (b-a, d-a, f-a tarzida) she’r shakli; lirik janr” [Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. 2010: 382]. Qit’aning she’riy shakl sifatida qasida va g’azaldan oldin paydo bo’lganligi haqidagi fikr “Adabiyotshunoslik lug’ati” mualliflari tomonidan tasdiqlanadi va bu janrning boshqa nazariy manbalarda keltirilganidek, g’azal va qasidadan olingan parchalar emas, balki avvaldan shakllangan mustaqil janr ekanligiga urg’u beriladi: “Ayrim manbalarda bildiriluvchi qit’a mustaqil asar sifatida yaratilishi ham, qasida va g’azal ichidan bir necha bayt ajratib olish natijasida paydo bo’lishi ham mumkin, qabilidagi fikrlarga qo’shilib bo’lmaydi. Bu holda qit’a so’zining lug’aviy va istilohiy ma’nolari farqlanmagan bo’ladi. Holbuki, istilohiy ma’noda qit’a muayyan shakl xususiyatiga ega bo’lgan mustaqil she’riy janrni anglatadi, ikkinchi tomondan muayyan janrga mansub asar (g’azal yoki qasidadan ajratib olingan bir necha bayt (hatto mazmunan g’oyat boy bo’lsa-da), yangi va mustaqil asar bo’lib qolmaydi, parcha parchaligicha qoladi” [Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. 2010: 383]. Darhaqiqat, qit’ani g’azal tarkibidan ajratib olingan baytlar deyish uning mazmun-mohiyatiga zid, bunday qarashlar mazkur atamaning lug’aviy ma’nosidagi “bir kesim” ma’nosidan kelib chiqqan bo’lishi mumkin.

Olimlar o‘z qarashlarini asoslash uchun qit’a janri genezisiga murojaat qilishni ma’qul ko‘rishadi. “Nasriy asarlardagi parchalar ayni shunday (qofiyalanishi birmuncha erkin, hajmi kichik, mazmun va vazn jihatdan cheklanmagan) shakl taqdim etuvchi imkonlarni ko‘rsatganki, shu asosda mustaqil qit’a janri paydo bo‘lgan” [Шайх Аҳмад Тарозий. 1996: 32]. Qit’a xossalaridan ushbu ko‘rsatib o‘tilgan jihatlar mumtoz adabiyotimizning aksar ijodkorlarini jalb etganligi ularning ko‘pchiligi ijodida ushbu janr namunalari uchrashidan ham ayon bo‘ladi.

Qit’a janri tadqiqi milliy adabiyotshunosligimizda Shayx Ahmad Xudoydod Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asaridan boshlangan deyish mumkin. Mumtoz olimimiz qit’aning asosiy lirik janrlar qatorida sanab o‘tadi: “Bilgilkim, majmu-i shuaro istilohinda she’rning aqsomi, ulkim mo‘tabardur, o‘n nav’ kelibtur: qasida, g‘azal, qit’a, ruboiy, masnaviy, tarje’, musammat, mustazod, mutavval, fard” [Шайх Аҳмад Тарозий. 1996: 32. Ko‘rinadiki, Shayx Xudoydod Taroziy qit’ani o‘nta asosiy janrlar, xususan, mustazod, ruboiy, g‘azallar qatorida ko‘rsatganligi olimning qit’aning alohida janr ekanligini e’tirof etganligini dalolatlaydi.

Yana bir mumtoz adabiyotshunos olim Atoulloh Husayniy “Badoe’ us-sanoe” asarida masnaviy shaklida qofiyalanmagan qasida garchi hajman uzun bo‘lsa ham, qit’a deyilganligini aytib o‘tadi. “Ruboiyning ham avvalgi bayti shunday bo‘lmasa, u qit’a ko‘rinishiga o‘xshab qoladi va ruboiy bilan qit’a o‘rtasidagi deyarli farq qolmasligini ta’kidlaydi. Bunga ko‘ra qasidaning birinchi bayti bilan ruboiyning birinchi va ikkinchi misralarini bir-biriga yaqinlashtiradigan xususiyat bu qofiya bo‘lib, ular o‘rtasida vaznda o‘xshashlik kuzatilmaydi. Chunki qit’a aruzning istalgan vaznda yozilishi mumkin” [Хусайний А. 1974: 201] degan fikr ilgari suriladi.

Shuningdek, lirikaning qat’iy qonuniyatlariga to‘la amal qilinmay yaratilgan kichik hajmdagi she’riy parchalarga ham qit’a nomi berilganligi ko‘rib o‘tilgan. Xususan, ijodkor ruboiy yoki tuyuqdek qat’iy qonuniyatli janrlar xossalaridan chekingan bo‘lsa, u yaratgan to‘rtlik mazmunan qanchalik teran va jozibali bo‘lmasin, baribir ruboiy yoki tuyuq emas, balki “qit’a” deb atalgan” [Хусайний А. 1974: 203] kabi fikrlar ham bu janrning nisbatan erkinligi bilan bog‘liq chalkashliklar deyish mumkin.

Abdurauf Fitrat o‘zining “Adabiyot qoidalari” nomli tadqiqotida qit’a janriga qisman to‘xtalib o‘tgan: “G‘azalning birinchi bayti bo‘lmasa, qolg‘ani qit’a bo‘ladi. Boshqacha aytganda, qofiyasi har baytning oxirida bo‘lub, birinchi misra’i qofiyasiz bo‘lg‘an tizmalarga qit’a deyiladi. Ko‘brak talabnomalar, chaqirish bitiklari, nasihatlar qit’a shaklida yozilg‘andir” [Абдурауф Фитрат. 2006: 201], Fitrat ham qit’aning matla’siz g‘azal shaklida bo‘lishiga hamda ko‘proq ijtimoiy mavzularda bitilganligiga e’tibor qaratgan.

Professor Ibrohim Haqqulov: “Qit’a mazmun-mohiyati bilan g‘azaldan keskin farqlanadi. Bu ikki janr orasidagi g‘oyaviy-badiiy o‘ziga xoslik xuddi mana shu nuqtada yanada yorqin, yanada aniqroq namoyon bo‘ladi” [Ibrohim Haqqulov. 1992: 18], deganlarida g‘azalning o‘z ma’no va mazmuniga ko‘ra – oshiqona so‘z, ya’ni ayollarga dil izhorlari bayoni uchun shakllantirilganligi, qit’a esa har qanday mavzuda yaratilishi mumkin ekanligini nazarda tutgan.

“Adabiy turlar va janrlar” lirikaga bag‘ishlangan ikkinchi jildida qit‘aga quyidagicha ta’rif berilgan: “Bir baytlidan boshlanuvchi va davomi chegarasiz bo‘lgan, monorifmali juft misralarigina qofiyalanuvchi (qit’a “parcha” deyilganidan, ba’zan mustaqil asarda aa, ba, va ham qofiyalanuvchi), aruzda, maxsus yoziluvchi goho qasida yo g‘azaldan parcha tariqasida keltiriluvchi operativ janr; ba’zan nasriy, falsafiy, epik, didaktik, adabiy-tanqidiy, ilmiy asarlarda; devonlarning debochalarida, risolalarda ham keltiriladi. Yaqin va O‘rta Sharqda nom chiqargan shakl” [Адабий турлар ва жанрлар. 1992: 192] Ko‘rinadiki, bu ta’rifda qit‘aning eng kichik hajmi to‘rt misra, qolgan hajmi chegarasiz ekanligi, ba’zan g‘azal tarzida ham qofiyalanishi mumkinligi, aruz vaznida yozilishi, qasida yoki g‘azalning parchasi tarzida yoki boshqa janrdagi yirik asarlar tarkibida ham kelishi mumkinligi, Sharqda mashhur ekanligi aytib o‘tish orqali ushbu janrning xos xususiyatlariga yana bir bor to‘xtalinadi.

Kitobda qit‘aning folklordagi ildizlari kuchli va uzun ekanligi haqidagi fikr ham keltirilgan, lekin ushbu fikr davom ettirilmagan. XX asrda qit’a shaklida yoziladigan to‘rtliklar ko‘payganligi ham eslatib o‘tilgan.

“Qit’a g‘azal va qasidadan oldin kelib chiqdi, u “Devonu lug‘otit turk”da ham bor, dastlabki forsiy qit‘alarni fors-tojik klassigi Rudakiy (860-941) yozgan; ammo fors tilida eng ko‘p qit’a yozgan shoir ibn Yamin Faryumodiydir. Bizda dastlab Yassaviy ishlatgan” kabi ma’lumotlar boshqa manbalardagi shu mazmundagi ma’lumotlar bilan deyarli bir xil. Xususan, Y.E.Bertels, A.Mirzoyev va N.Hotamov, B.Sarimsoqovlarning bergan ma’lumotlari ham shu mazmunda. Faqat qit‘aning kelib chiqishi xalq og‘zaki ijodiga borib taqalishi va yozma shakldagi qit‘alar o‘zbek adabiyotida “Devonu lug‘otit turk” asari tarkibida ham bor ekanligi haqidagi ma’lumotlar boshqa manbalarda deyarli uchramaydi.

Mazkur manbadagi Navoiyning “o‘zbek adabiyotida qit’a janrining asoschisi” deya e’tirof etilishi boshqa manbalarda ham qayd etilgan va bunga sabab sifatida alloma ijodkorning ushbu janr nazariyasiga mufassal to‘xtalgani va qit’a janrida uch yuzga yaqin namunalar yaratganligi bo‘lishi mumkin.

Adabiyotshunos olim R.Orzibekov tadqiqotida qit’a janri o‘tmishdagi ijodkorlar kundalik hayotda sodir bo‘lgan voqea-hodisalarga o‘z munosabatlarini bildirish, undan olgan taassurotlarini badiiy in’ikos ettirish, o‘z tarjimaiy hollari va shoirlik iste’dodidan boshqalarni xabardor qilish maqsadida turli hajmdagi she’riy baytlar, parchalar yaratganligi oqibatida shakllangan degan fikr ilgari suriladi. “Shunday bayt va parchalarning ayrimlari ba’zan qayta tahrir etilib, jilo berilib, shu shoirlarning devonlariga kiritilgan va ular klassik poetikaga oid asarlarda, she’riy devon va majmualarda qit‘alar nomi bilan yashab kelgan” [Орзибеков Р. 1976: 5]. Olimning mazkur fikrlari qit‘aning badihago‘ylik asosida shakllantirilishi yoki uning “operativ janr” ekanligini ta’kidlovchi yuqorida ham keltirib o‘tilgan fikrlarning tasdig‘i sifatida baholanishi mumkin.

Adabiyotshunos olim Anvar Hojiahmedov ham Alisher Navoiy ijodidagi qit‘alar miqdori va baytlar tasnifini o‘ziga xos tarzda amalga oshirgan: “Mazkur janr rivojiga Alisher Navoiy kuchli ta’sir ko‘rsatdi. U o‘z davrining muhim ijtimoiy-

axloqiy muammolarini “Xazoyin ul maoniy” asaridan o‘rin olgan 210 qit’asida mohirona aks ettirdi” [Xo‘jiyaxmedov A. 2008. 172]. Olim ushbu qit’alarning 168 tasi ikki baytli, 26 tasi uch baytli, 7 tasi to‘rt baytli, 4 tasi besh baytli, 1 ta olti baytli, 1 ta yetti baytli, 2 ta to‘qqiz baytli, 1 ta o‘n bir baytli hajmda shakllantirilganligi, ya’ni aksar qit’alar ikki baytli hajmda yozilganligini ta’kidlab o‘tadi. Adabiyotshunos tomonidan qit’a namunalari Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy, Avaz O‘tarlarda bor ekanligi ta’kidlanadi. Ya’ni janr rivojida nafaqat Navoiyning, balki keyingi davr ijodkorlarining ham o‘rni alohida ekan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qit’a janri tuzilishiga ko‘ra, gazalga yaqin turadi, lekin qit’ada matla’ qofiyalanmaydi (a-b, d-b, f-b...), hajmi ham qat’iy emas, mazmun talabiga ko‘ra, ikki bayt va undan ortiq bo‘lishi mumkin. Har bir qit’a yaxlit asar bo‘lib, biron mavzuga bag‘ishlanadi. Unda ijtimoiy-siyosiy, diniy-falsafiy axloqiy-ta’limiy va boshqa mazmundagi fikrlar jiddiy yoki hajv yo‘li bilan ijodkor hayotining turli holatlari ifodasi sifatida bayon qilinadi.

Адабиётлар:

1. Hamroyeva O. Mumtoz qofiya nazariyasi asoslari. – T.: Bookmany print, 2022. – B. 27-28.
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/ibrohim-haqqul-qita-va-gazal-munosabatiga-doir.html>.
3. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. – B. 548-552.
- Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 193.
4. Иброҳимов М. Кичик поэтик жанрлар ва уларнинг услуб хусусиятлари//Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги.–Тошкент, Фан, 1983. –Б.184;
5. Курунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б. 381-382.
6. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. –Б. 5.
7. Ҳаққулов И. Қитъа ва ғазал муносабатига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974 йил, 4-сон. – Б. 12 – 17.
8. Ҳожирахмедов А. Мумтоз бадиият луғати. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. – Б. 172.
9. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 152.
10. Хусайний А. Бадоеъ ус-саноеъ. – Душанбе: Ирфон, 1974. – Б. 201.
11. Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент: Хазиана, 1996. – Б. 32.
12. Ян Рипка. История персидской и таджикской литературы. – М.: Прогресс, 1970. – С. 106.